

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR
O‘RINBOSARLARI MALAKA SINOV TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

**DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR
O'RINBOSARLARI MALAKA SINOV TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur spetsifikatsiya maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarini attestatsiyadan o'tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli hamda baholash mezonini talablarini aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgor maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va qobiliyatlarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasiga qabul qilinadigan qarorlar asosli bo'lishini ta'minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta'minlanadi.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 26-maydagi PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 572-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 692-son qarori.

III. Baholash qamrovi

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor o'rinbosari yo'nalishga oid 35 ta, kasb standartlaridan 5 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig'i taqdim etiladi va umumiy test topshirilarini bajarish uchun 90 daqiqa vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari, moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari*) foydalaniladi.

**Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalari
bo‘yicha taqsimoti**

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testl ar soni
1. Maktabgacha pedagogikaning asoslari (1-7-savollar)		
1.1. Maktabgacha pedagogikaning asosiy tushunchalari	-Pedagogika fani doirasida zarur bo‘lgan kategoriyalar, tushunchalar, yondashuvlar va metodlarni amalda qo‘llash; -ta‘lim-tarbiyaviy faoliyatlarda bolaning yosh va individual rivojlanish xususiyatlarini inobatga olish; -shaxsni shakllantiruvchi omillarini bilish; -maktabgacha ta‘limda qo‘llaniladigan o‘yin turlarini bilish; -o‘yin - yetakchi faoliyat sifatida amaliy jarayonlarda qo‘llash; -tarbiya jarayoni: mazmuni va mohiyatini bilish; -axloqiy, aqliy, jismoniy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, mehnat va estetik tarbiya turlarini amaliyotda qo‘llash; - kun tartibini va u asosida faoliyat turlarini to‘g‘ri tashkil etish.	7
2. Maktabgacha ta‘limga oid normativ-huquqiy asoslar va tizim talablari (8-15-savollar)		
2.1. Maktabgacha ta‘limga oid normativ- huquqiy hujjatlarni o‘rganish	-“Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun talablarini bilish va amaliy faoliyatda tatbiq etish; - Maktabgacha ta‘lim tashkiloti faoliyatini Maktabgacha ta‘lim Davlat standarti asosida tashkil etish; -“Ilk qadam” milliy o‘quv dasturini bilish va ta‘lim faoliyatlarida mazmuniy yondashuvni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish; -bolaga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish; -bola hayoti va so‘g‘lig‘ini muhofaza qilishni tashkil etish; -maktabgacha ta‘lim tashkilotida Kuzatuv kengashi faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish; -maktabgacha ta‘lim tizimida ekologik ta‘limni takomillashtirish yuzasidan tadbirlarni tashkil eta olish; -ta‘lim olishda alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ta‘lim va tarbiya jarayoni to‘g‘ri tashkil etish.	8
3. Ta‘lim-tarbiyaviy jarayon metodikasi (16-35-savollar)		

3.1. Ta'lim-tarbiyaviy jarayon metodikasi va metodik rahbarlik	-Tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish, tahlil qilish, takomillashtirish; -tarbiyachi faoliyatini metodik tahlil qilish; -musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi, defektolog, til o'qituvchisi faoliyatlarini kuzatish, tahlil etish va tavsiyalar berish; -maktabgacha ta'lim va tarbiyaning muqobil shakllari faoliyatini shakllantirish; -ota-onalar bilan pedagogik hamkorlikni yo'lga qo'yish; -metodik maslahat va ko'rsatma berish texnologiyalarini amaliyotda qo'llash.	6
3.2. Boshqaruv, pedagogik mahorat va innovatsion faoliyat	- Kompetentlik va pedagogik mahorat tushunchalarini bilish; -pedagogik jarayonni etishda tarbiyachi-pedagogning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lish; -faoliyatini maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti asosida olib borish; -pedagogik kengash va seminarlar, turli tadbirlarni tashkil etish; - kasbiy faoliyatni samarali olib borish, tarbiyaviy jarayonni boshqarish, metodik yordam ko'rsatish, tahlil qilish; -ta'lim tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etish; -pedagog xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlanish; -pedagog xodimlarning malaka oshirish tadbirlarini tashkil etish.	7
3.3. Rejalashtirish, hujjatchilik, monitoring va ta'lim sifati	-Maktabgacha ta'lim tashkiloti yillik ish rejasini tuzish va uning ijrosini ta'minlash; -pedagoglarning ish hujjatlarini yuritish tartibiga amal qilish; -pedagogik jarayonlarni nazorat qilish; -yillik hisobotlarni tayyorlash; -bola rivolahishini kuzatish, tahlil etish va kuzatuv xaritalarini to'g'ri yuritish; -maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhit va guruhlarda rivojlanish markazlarini to'g'ri tashkil etish; -pedagogik muhitni baholash va takomillashtirish bo'yicha takliflar bera olish.	7
Jami:		35 ta

**Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test
topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari
bo'yicha taqsimoti**

2-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
I. PEDAGOGIK MAHORAT		10 ta
1.1. Pedagogik psixologik kompetensiyalar	–pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; –pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, kasbiy faoliyatda zarur pedagogik qobiliyatlar, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o'sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; –pedagogik jarayonni loyihalash (shart-sharoit, texnologiya, o'zaro munosabatlar) mazmunini, model loyiha–amaliyot ketma-ketligini, innovatsion texnologiyalarni joriy etish mantig'i va bosqichlarini, ta'lim muhitini loyihalashning tayanch shartlari hamda pedagogik dizayn turlarini bilishi va vaziyatlarda qo'llay olishi	5
1.2. Bolalar rivojlanishini qo'llab quvvatlash	–“Ilk qadam” milliy o'quv dasturining maqsad va tamoyillarini, 0–7 yosh davrida bolaning rivojlanish bosqichlari hamda yosh xususiyatlarini, bolaga yo'naltirilgan va differensial yondashuv hamda o'yin asosida o'qitish mantig'ini, shuningdek oraliq/yakuniy kuzatishning maqsadi va tamoyillarini hamda “rivojlanish xaritasi”ning vazifasini bilish; –bola rivojlanish dinamikasini baholay olish, rivojlantirish maqsadlarini aniq belgilash va yondashuvlarni vaziyatlarda qo'llay olish	2
1.3. Metodik va texnologik savodxonlik	–maktabgacha ta'limda pedagogik faoliyatni loyihalashtirish asoslarini, innovatsion pedagogik texnologiya (loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, differensial ta'lim, syujet-rolli o'yinlar, inklyuziv ta'lim, jismoniy faolligini oshirish, tasviriy va dizayn faoliyati, qurilish va konstruksiyalash mashg'ulotlarini loyihalashtirish va boshqalar)larni bilish va faoliyatga mosini tanlay olish; – maktabgacha ta'limni loyihalash va tashkil etish	3

	bo'yicha qabul qilingan qarorlarga baho berish va natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi	
II. KASBIY STANDART		5 ta
2.1. Kasbiy standart	–kasbiy standart doirasida umumiy qoidalar, standartning maqsad va vazifalari, pedagogga qo'yiladigan bilim-ko'nikma-malaka talablari, uning mehnat vazifalari, baholanadigan ko'rsatkichlar tizimi hamda yakunlovchi qoidalar mazmunini bilishi, ularni amaliyotda qo'llay olishi va faoliyati natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi; –kasbiy standart bo'yicha talab etiladigan umumiy talablar, zarur bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni quyidagi yo'nalishlarda egallashi zarur: rivojlantiruvchi ta'lim muhitini tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tashkil etish, bolalar rivojlanishini kuzatish, oila bilan hamkorlik qilish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishni bilishi, ularni amaliyotda qo'llay olishi va faoliyati natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi.	5

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Yo'nalishga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish	8
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	35
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	7

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasini (raw score) hisoblash uchun har bir to'g'ri javobga 2 ball, noto'g'ri javobga 0 ball beriladi. Umumiy 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki

elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 14-noyabr, O'RQ-996-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 30-sentyabr, PF-152-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-may, PQ-4312-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.05.2019 yildagi 434-sonli "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.12.2024 yildagi 867-sonli "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 423-son Qarori, 2025 yil 8-iyul.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.12.2020 yildagi 802-sonli "Maktabgacha ta'lim-tarbiyaning Davlat Standarti" to'g'risidagi qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligining 2018-yil 30-apreldagi 20/1, 10-qq/1-son qarori bilan tasdiqlangan "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM"
10. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 29-avgustdagi "Maktabgacha ta'lim tashkiloti va pedagoglarning ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 323-son buyrug'i.
11. Maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to'g'risida 2021-yil 12-iyuldagi 128-sonli buyruq.
12. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirining 2018-yil 21-noyabrdagi 2-sonli buyrug'i. Maktabgacha ta'lim tashkilotining kuzatuv kengashi haqidagi namunaviy nizom.
13. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 16-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo'linmalarining nizomlari hamda vazirlik huzuridagi institutlar, tasarruf

- tashkilotlari va ta'lim muassasalari xodimlarining lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 156-sonli buyruq.
14. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limning "Ilk qadam" milliy o'quv dasturi. Uchinchi nashri. Toshkent, 2026 yil
 15. Sh.A.Sadikova. "Maktabgacha pedagogika". Darslik. Tafakkur bo'stoni nashriyoti. 2013.
 16. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". Darslik. Tafakkur bo'stoni nashriyoti. 2019.
 17. I.V.Grosheva, Sh.Sh.Mirziyoyeva, X.U.Rizayeva, I.V.Kuryayeva, Y.A.Nekrasova, N.S.Shivaldova, L.Z.Xaziyeva "Yer sayyorasi – umumiy uyimiz" Ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun parsial dastur, Toshkent- 2022.
 18. I.V.Grosheva, N.S.Shivaldova, I.V.Kuryayeva "MTM hududida ekologik so'qmoq tashkil etish", Toshkent- 2022.
 19. Z.S.Qodirova, O.E.Akbarov, F.A.Abdug'opirova, Sh.Sh.Xojimirzayeva, Sh.B.Jumanova. "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish". Darslik. Namangan - 2024
 20. M.R.Is'hoqova, M.Z.Fayzullaeva, J.R.Kucharov, N.Q.Azizova, N.M.Sultonova "Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodxonlikka o'rgatish" Toshkent -2018
 21. X.Meliyev, O.Jamoldinova. K.Risqulova "Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati" ТОШКЕНТ – 2021
 22. D.R.Babayeva. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi". Darslik. Toshkent, "Barkamol Fayz media" 2018.
 23. N.U.Bikbayeva, Z.I.Ibragimova, X.I.Qosimova "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish" T."O'qituvchi", 1995-y.

Pedagogik mahorat bo'yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: "Bayoz" nashriyoti, 2025. – 504 b.

Normativ-huquqiy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020.
2. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. 2024.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri manbalardan olinmaydi. Sinovga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.